



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA  
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BOJXONA QO‘MITASI**

CUSTOMS COMMITTEE UNDER THE MINISTRY OF ECONOMY AND FINANCE  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 3. tel. (55) 502-76-00, www.bojxona.uz, customs@exat.uz, info@customs.uz

2026-yil 1-iyul

03-05/15-8038-son

**O‘zbekiston Respublikasi  
Investitsiyalar, sanoat va  
savdo vazirligi**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Savdo-sanoat palatasi**

*nusxasi:* **Bojxona brokerlari  
uyushmasi**

Bojxona qo‘mitasi tomonidan bojxona brokerlari uyushmasi, uning a‘zolari hamda vakillari bilan joriy yilning iyun oyida ochiq muloqot o‘tkazilgan bo‘lib, ular tomonidan bildirilgan taklif va e‘tirozlar atroflicha o‘rganilib tegishli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, Bojxona Brokerlari Uyushmasi hamda boshqa ishtirokchilar tomonidan, “Incoterms-2020” tasniflagichining O‘zbekiston uchun rasmiy tarjimadagi (*O‘zbek va Rus tillarida*) tahriri mavjud bo‘lmaganligi sababli tashqi savdo operatsiyalarini yuritishda undan foydalanish imkoniyati cheklanayotganligi ma‘lum qilinib, “Incoterms-2020” tasniflagichining O‘zbekiston uchun O‘zbek va Rus tillaridagi rasmiy nashrlarini ishlab chiqish va tarqatishni yo‘lga qo‘yish taklifi bildirildi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 3-fevraldagi 14/34-21-son topshirig‘i hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining 2011-yil 31-yanvardagi ΓC-01/17-593-sonli xati asosida “Incoterms-2010” xalqaro savdo qoidalari bojxona organlarining xizmat faoliyatiga joriy etilgan.

Mazkur yetkazib berish shartlari tasniflagichi Xalqaro savdo palatasi (*International Chamber of Commerce (ICC)*) tomonidan tasdiqlanadi va yangilanadi.

*Ma'lumot uchun: Incoterms — xalqaro savdo shartlarining yagona qoidalari bo'lib, ular eksport-import operatsiyalarida sotuvchi va xaridorning majburiyatlarini belgilaydi. Hozirda amalda keng qo'llanilayotgan talqin — Incoterms 2020 hisoblanadi.*

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Incoterms-2020” tasniflagichining O'zbekiston uchun rasmiy tarjimali (O'zbek va Rus tillarida) nashrini chop etish masalasini vakolatingiz doirasida ko'rib chiqib, tashqi savdo ishtirokchilariga amaliy yordam ko'rsatishingizni so'raymiz.

**Rais o'rinbosari**



**N. Musamuxamedov**

Ijr.: S.Kamalov  
Tel.: 55-502-76-00 (ichki: 78-09)